



UMUMIY SHARTLAR

1. Umumiy qoidalar

- Telc imtihoniga ro'yxatdan o'tilgan va Bildung und Beruf MCHJ tomonidan tasdiqlangandan so'ng, ishtirokchi bilan Bildung und Beruf MCHJ o'rtasida shartnoma tuziladi. Ro'yxatdan o'tish jarayoni onlayn shakllarni to'ldirish yoki Bildung und Beruf MCHJning yozma shartnoma shaklidan foydalanish orqali amalga oshiriladi.
- Ro'yxatdan o'tgan mijoz 24 soat ichida imtihon to'lovini to'liq to'lashi kerak. To'lov faqat bank o'tkazmasi orqali qabul qilinadi.
- Har qanday imtihon band qilinishi uchun majburiy ravishda shartnoma tuzish talab etiladi. Ishtirok etish faqat Bildung und Beruf MCHJ tomonidan to'lov qabul qilingandan so'ng amalga oshiriladi.
- Ro'yxatdan o'tish faqat yozma ravishda yoki onlayn shaklda qabul qilinadi. Og'zaki yoki telefon orqali amalga oshirilgan shartnomalar haqiqiy hisoblanmaydi. Bizning imtihon oluvchilarimiz ro'yxatdan o'tish to'g'risida qaror qabul qilish vakolatiga ega emaslar.
- Bildung und Beruf MCHJ kurslar uchun mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, o'quv xonalarini band qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- Imtihon ishtirokchilari faqat bitta ma'lum imtihonchi bilan imtihon topshirishni talab qila olmaydi.

2. Imtihon to'lovlarini bekor qilish va qaytarish

- Imtihonga ro'yxatdan o'tish majburiy bo'lib, to'lovlar to'lanishi shart. Bekor qilish faqat yozma ravishda va imtihon sanasidan kamida 30 kun oldin amalga oshirilishi lozim.
- Imtihonga kelmaslik yoki hisob-fakturani to'lamaslik ro'yxatdan o'chirish hisoblanmaydi. Imtihonni bekor qilish yoki qatnashmaslik holatida to'lov qaytarilmaydi.
- Agar ishtirokchi imtihon kuni kasal bo'lsa, buning uchun tibbiy ma'lumotnoma klchi bilan imtihon kuni taqdim etilishi shart. Bu holatda gayta topshirish 100 yevro miqdorida bo'ladi.

3. Imtihon sanalari uchun maxsus qoidalar

- Barcha til darajalari bo'yicha imtihon sanalari oldindan belgilab qo'yilgan. Istisno holatlarda, Bildung und Beruf MCHJ imtihon sanalarini o'zgartirish yoki kechiktirish huquqiga ega. Har qanday o'zgarish haqida ishtirokchilar o'z vaqtida xabardor qilinadi.
- Agar imtihon uchun minimal ishtirokchilar soni to'planmasa, Bildung und Beruf MCHJ imtihonni bekor qilish yoki boshqa sanaga ko'chirish huquqiga ega. Agar imtihon bekor qilinsa va ishtirokchi yangi sanani qabul qilmasa, to'langan imtihon to'lovi to'liq qaytariladi.



IMTIHON BO'YICHA KO'RSATMALAR

Imtihon kuni uchun xulq-atvor va gigiyena qoidalari

Imtihon kuni barcha ishtirokchilar uchun muhim kun hisoblanadi. Ushbu kunga yaxshi tayyorgarlik ko'rish imtihon jarayonining muammosiz o'tishini ta'minlaydi va uni barchalar uchun yoqimli qiladi.

Agar siz imtihondan oldin imtihon muhiti va tartiblari bilan tanishib chiqsangiz, muhim paytda faqat imtihonga e'tibor qaratishingiz mumkin bo'ladi.

Imtihondan oldin

- Imtihon sanasi, vaqti va joylashgan manzilni tekshirib chiqing. Ushbu ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tganingizda biz sizga taqdim etamiz.
- Yo'lga qancha vaqt ketishini oldindan hisoblab chiqing, ayniqsa, agar imtihoningiz dam olish kunlari yoki bayram kunlari oldidan yoki keyin bo'lsa.
- Agar imtihondan bir kun oldin isitmangiz va harorat yuqori bolsa yuqori bo'lsa, imtihonga kelmang.

! Nimani olib kelish kerak?

Imtihonga haqiqiy shaxsiy guvohnomangizni yoki fuqarolik pasportingizni (nusxasi emas!) olib keling! Barcha imtihon ishtirokchilari imtihon kunlarida haqiqiy shaxsiy guvohnomani yoki fuqarolik pasportlarini taqdim etishlari shart.

x Ruksat etilmagan narsalar

Laptop, iPad, planshet, eReader yoki aqlli soatlarni olib kelish taqiqlangan.

Sumka yoki ryukzak olib kelmang.

Imtihon xonasiga oziq-ovqat yoki ichimlik olib kelmang.

Istisno: Faqat shaffof oq PET plastik butilkada suv olib kelish mumkin.

Imtihon kuni

- Imtihon joyiga yakka holda keling. Faqat imtihon ishtirokchilari kirishi mumkin.
- Imtihon joyiga erta yetib keling! Imtihon xonasini topish uchun belgilarga rioya qiling yoki xodimlarga murojaat qiling.
- Yozma va og'zaki imtihon vaqtidan kech qolmang! Agar belgilangan vaqtdan kech qolsangiz, imtihonda qatnashish taqiqlanadi.



Imtihon paytida

- Nazoratchilarning ko'rsatmalariga diqqat bilan amal qiling.
- Boshqa ishtirokchilar bilan gaplashmang va ularning javoblarini ko'rishga urinmang.
- Vaqtni to'g'ri taqsimlash uchun imtihon xonasida soat bor.
- Savollaringiz yoki muammolaringiz bo'lsa, darhol nazoratchiga xabar bering.

Har bir imtihon qismi tugagach

- Har bir imtihon qismi (masalan, yozish, o'qish va h.k.) yakunida nazoratchining yozishni to'xtatish bo'yicha ko'rsatmalariga rioya qiling.
- Darhol yozishni to'xtating va barcha hujjatlarni, jumladan, savol varaqlari, javob varaqlari va qorala-ma qog'ozlarini nazoratchiga topshiring.

Imtihondan keyin

- Sertifikatlar yetib kelgandan so'ng (maksimal olti hafta ichida) sizga elektron pochta orqali xabar beriladi. Shu sababli qo'shimcha so'rov yubormang.
- Sertifikatingizni bizning ofisimizdan olib ketishingiz mumkin: Qamashi 48B, Toshkent

Hozirgi imtihon va testlar haqida qo'shimcha ma'lumotni quyidagi havola orqali topishingiz mumkin: <https://bildungundberuf.com/uz/>

Sizga katta muvaffaqiyat tilaymiz!